



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA
FAKULTETI



Ro'yxatga olindi:
№ BD-60721500
60721500-1.22
2024 yil "p" 12

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R. Xalmuradov

2024 yil "p" 12



AMALIY GEODEZIYA FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 –Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	720000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi:	60721500-Geodeziya va geoinformatika

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
AGEO1608	2026-2027	6-7	4-4
AGEO1708	2028		
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	Umumiy (soat)
Majburiy	O'zbek	7	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Umumiy (soat)
		104	240
Amaliy geodeziya			
		136	

Fanning maqsadi (FM)	I. FANNING MAZMUNI
FM1	Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarda topografik-geodezik qidiruv ishlari, loyihani joyga ko'chirish, bino va inshootlarni qurishda geodezik ishlarni bajarish, inshootlar deformatsiyasini kuzatish masalalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – topografik-geodezik qidiruv ishlari, bino va inshootlar loyihasi joyga ko'chirish, qurilish jarayonida geodezik o'lchashlarni olib borish, ijroviy syomkalarni bajarish, inshootlarni foydalanish davrida ular deformatsiyasini geodezik kuzatib borishni nazariy va amaliy masalalarini talabalarga o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
	II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) Kirish. Injenerlik-topografik syomkalar. Qidiruv planlari M1 Amaliy geodeziya fani va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Injenerlik qidiruv planlari xususiyati. Topografik planlarning aniqligi, batafsilligi, masshtabi va relyef kesimi balandligi. M2 Geodezik asos aniqligi va uni yaratish usullari. Injenerlik-topografik syomkalar asosini rivojlantirish sxemalari. Planli geodezik asos aniqligi. Balandlik geodezik asos aniqligi. Asosni rivojlantirish usullari. M3 Yirik masshtabli syomkalar. Yirik masshtabli syomkalar asosi. Syomkaning fototopografik usuli. Syomkaning topografik usuli. Yer osti kommunikatsiyalarini syomka qilish usullari. M4 Chiziqli inshootlar trassasi va trassalash haqida ma'lumot. Magistral trassalardagi qidiruv texnologiyalari Avtomobil yo'llarini trassalash, trassa elementlari, toifalari va trassalash parametrlari. Tekis va tog'li joylarda trassalash. Magistral trassalarda dastlabki va yakuniy qidiruvlar. M5 Avtomobil yo'llarini kameral va dala trassalash. Topografik kartada yo'l o'qini trassalash. Trassani tanlash va loyihalashning avtomatlashirilgan tizimi. Trassa loyihasi joyga ko'chirish. Trassa burilish burchaklarini aniqlash uchun burchak o'lchash. Trassalashda chiziqli o'lchashlari. Trassa burilishlarida egri bosh nutilarini rejalar. Piktaj jurnalini olib borish. Trassani mahkamlash. M6 Trassani nivelirish va syomka ishlari. Trassani bog'lash. Trassalash materiallarini qayta ishlash. Trassani nivelirish. Topografik syomka ishlari. Trassani geodezik asos punktlariga bog'lash. Yo'llarni tenglashtirish. Bo'yama profilni tuzish. M7 Injenerlik inshootlarni rejalar. Loyihani geodezik tayyorlash. Rejalash ishlari bajarish tartibi va aniqligi Inshoot loyihasi. Loyihaning analitik hisobi. Plan bo'yicha masofa va yo'nalishni aniqlash aniqligi. Geodezik ishlar loyihasi. Inshootni rejalar tartibi. Batafsil rejalar aniqligi. M8 Loyihaviy burchak, chiziqli va balandlikni joyga ko'chirish Loyihaviy burchakni yasash (qurish). Loyihaviy chiziqli yasash. Loyihaviy balandlikni

	joyga ko'chirish. Berilgan nishablikdagi chiziqli va tekislikni joyga ko'chirish.
M9	Rejalash geodezik asosini qurish va uning aniqligi. Asosiy rejalar ishlari usullari. Rejalash geodezik asosini loyihalash xususiyati. Rejalash triangulyatsiya. Mikrotrilateratsiya. Geodezik qurilish to'ri. Injenerlik poligonometriya. Koordinatalarni qayta hisoblash. Qutbiy koordinatalar usuli. To'g'ri burchakli koordinatalar (pendendikulyar) usuli. To'g'ri burchak kesimma usuli. Yopiq uchrachak usuli. Batafsil rejalar usullari va ularning aniqligi M10 Inshootlarni batafsil rejalarining stvor kesimma usuli va uning aniqligi. Chiziqli kesimma usuli va uning aniqligi. M11 Qurilish maydonchasini vertikal tekislash loyihasi. Vertikal tekislash loyihasi. Vertikal tekislashda yer ishlari hajmini hisoblash. M12 Montaj ishlariga geodezik tayyorgarlik. Qurilish konstruksiyalarni planli o'rni geodezik o'rnatish usullari va tekshirish. Ijroviy syomka. Montaj o'qlarini tanlash. O'qlarni joyda mahkamlash. Montaj o'qlarini nazorat qilish. Ishchi reperlar tarmog'ini yaratish. Qurilish konstruksiyalarini planli o'rni o'rnatishning tor (sim), sim-tor va optik vizirlash usullari. M13 Konstruksiyalarni balandlik o'rni o'rnatish. Baland konstruksiyalarni tik (vertikal) o'rnatish va tekshirish. Geometrik nivelirish. Mikronivelirish. Hidrostatik nivelirish. Konstruksiyalarni tik (vertikal) o'rnatishda ipli shovumi qo'llash. Kollimatsiya tekisligi yordamida proyeksiyalash (qiya vizirlash usuli). Vertikal optik proyeksiyalash. Yonlama nivelirish usuli. M14 Ijroviy syomkalar. Bosh planlarni tuzish. Ijroviy syomkalarining mazmuni va uning geodezik asosi. Montaj ishlari jarayonidagi ijroviy syomkalar, yer osti injenerlik kommunikatsiyalarni syomka qilish. Bosh planlar turlari va ularning maqsadi. Ijroviy bosh planlarni tuzish. M15 Sanoat inshootlarining qidiruvlari va qurilishda geodezik ishlar Sanoat obyektlarini qurish uchun maydonchani tanlash. Tayanch tarmoqni barpo etish: triangulyatsiya, nivelir tarmog'i. Majmua hududining topografik syomkasi. M16 Geodezik qurilish to'ri loyihalash va qurish. Geodezik qurilish to'ri rining maqsadi va aniqligi. Boshlang'ich yo'nalishlarni loyihalash va joyga ko'chirish. Qurilish to'ri batafsil rejalar usullari. M17 Sanoat inshootlari asosiy o'qlarni joyga ko'chirish. Poydevorlarni batafsil rejalar. Sanoat inshootlarining bosh o'qlarini rejalar. Obnoskani loyihalash va qurish. Asosiy o'qlarni obnoska bo'yicha rejalar. Handqlarni rejalar. Opatubka ostini rejalar. Poydevorlarning ijroviy syomkasi. M18 Qurilish konstruksiyalari va texnologik jihozlarni loyihaga o'rnatish. Qurilish konstruksiyalari montaj ishlari tayyorgarlik. Metall konstruksiyalarni o'rnatish. Temir-beton konstruksiyalarni o'rnatish. Kran osti yo'llarini tekshirish. M19 Hidrotekhnika inshootlarini qurishda geodezik ishlar. Daryolarning bo'yama profilini tuzish. Daryo nishabligini aniqlash aniqligiga talablar. Daryodagi suv sathini nivelirish. O'zamlar syomkasi. Syomka masshtabi. Syomka asosi. O'lchash ishlari. M20 Gidromeliyorativ qidiruvlar. Melioratsiya tizimi. Melioratsiya tizimini loyihalash uchun topografik asos. Geodezik asosni qurish va syomkani bajarishning o'ziga xos xususiyatlari. M21 Magistral kanallarni qurishda qidiruv ishlari. Kanallar. Loyihalashning topografik asosi. Kanal trassasining geodezik asosi. Sug'orish kanali o'qini topografik kartada trassalash. Kanal bo'yama profilni tuzish. M22 Bino va inshootlar deformatsiyasini kuzatish. Poydevor cho'kishini o'lchash. Inshootlar deformatsiyasi. Cho'kishlarni kuzatish uchun belgilarni joylashtirish. Cho'kishlarni o'lchash. Nivelirlashni bajarish. M23 Inshootlarning gorizontal (planli) siljishini aniqlash Gorizontal siljishni aniqlash uchun belgilarni joylashtirish. Stvor o'lchash usulida gorizontal siljishni aniqlash. Inshootlar siljishini chiziqli-burchaklar qurish usulida aniqlash. M24 Bino va inshootlarning vertikal (tik)likdan og'ishini geodezik kuzatish. Og'ishni aniqlashda shovunlarni va vertikal proyeksiyalovchi asboblarni qo'llash. Og'ishni aniqlash

usullari: koordinatlar usuli, vertikal proyeksiyalash usuli, gorizontal burchaklar usuli, yuqori aniqlikda nivelirlash usuli. Yoriqlarni kuzatish.	
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)	
S1	Topografik kartada avtomobil yo'li o'qini kameral trassalash. Undan bo'yama profilini tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash. Dorraviy egri elementlarini hisoblash.
S2	Avtomobil yo'li trassasining bo'yama profilini tuzish. Trassa bo'yama profiliga loyiha elementlarini tushirish.
S3	Bino va inshootlar asosiy o'qlarini joyga ko'chirish uchun geodezik ma'lumotlarni hisoblash va ishchi chizmani tuzish.
S4	Loyihaviy burchak, loyihaviy masofa va nuqtalarning loyiha balandligini joyga ko'chirish.
S5	Inshootlar asosiy o'qlarini joyga ko'chirish.
S6	Inshoot konstruksiyalari (ustunlari) o'rmini batafsil rejalash.
S7	Qurilish maydonchasining vertikal tekislash loyihasini tuzish va yer ishlari hajmini aniqlash.
S8	Bino va inshootlarni qurish jarayonida ijroviy syomkalarni bajarish
S9	Qurilish to'ri loyihasini kartada tuzish va uni joyga ko'chirishga tayyorlash.
S10	Topografik kartada kanal o'qini trassalash va bo'yama profil uchun ma'lumotlarni aniqlash.
S11	Sug'orish kanali bo'yama profilini tuzish va unda loyihalash ishlari.
S12	To'g'onlar cho'kishini geodezik kuzatish loyihasini tuzish
S13	To'g'onlar gorizontal siljishini kuzatish loyihasini tuzish
S14	Inshootning vertikalitidan og'ishini aniqlash

IV. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv reja rejalashtirilgan

V. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fandan kurs loyihasi (ishi) o'quv reja 7-senstrida rejalashtirilgan

Mavzu: Bino va inshootlar deformatsiyasini geodezik usullar orqali gorizontal va vertikal siljishini aniqlash va taxlil qilish.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular "Amaliy geodeziya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendari tematik reja

№		Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Injenerlik qidiruv planlari xususiyati. Topografik planlarni aniqligi, batafsilligi, masshabi va relyef kesim balandligi.	
2.	Geodezik asos aniqligi va uni yaratish usullari.	
3.	Avtomobil yo'llarini trassalash, trassa elementlari, toifalari va parametrlari.	
4.	Tekis va tog'li joylarda trassalash ishlari. Magistral trassalardagi qidiruv texnologiyalari.	
5.	Avtomobil yo'llarini kameral va dala trassalash. Topografik kartada yo'li o'qini trassalash.	
6.	Topografik kartada bo'yicha avtomobil yo'li o'qini kameral trassalash. Avtomobil yo'li trassasi bo'yama profilini tuzish va unda loyiha elementlarini tushirish.	
7.	Injenerlik inshootlarni rejalashda loyihami geodezik tayyorlash. Rejalash ishlari bajarish tartibi va aniqligi.	
9.	Loyihaviy burchak, masofa va nuqtaning loyiha balandligini joyga ko'chirish.	
10.	Rejalash geodezik asosini qurish va uning aniqligi. Asosiy rejalash ishlari usullari. Batafsil rejalash va uning aniqligi.	
11.	Bino va inshootlar asosiy o'qlarini joyga ko'chirish uchun geodezik ma'lumotlarni hisoblash va ishchi chizmani tuzish.	
12.	Inshootlar asosiy o'qlarini joyga ko'chirish. Inshoot konstruksiyalari (ustunlar) o'rmini batafsil rejalash.	
13.	Qurilish maydonchasining vertikal tekislash loyihasini tuzish va yer ishlari hajmini aniqlash.	
14.	Ijroviy syomkalar mazmuni va uning geodezik asosi. Montaj ishlari jarayonidagi ijroviy syomkalar; yer osti injenerlik kommunikatsiyalarni syomka qilish.	

15.	Sanoat majmuasini barpo etishda geodezik ishlar. Majmua hududining geodezik asosi va topografik syomkasi.
16.	Qurilish to'ri loyihasini kartada tuzish va uni joyga ko'chirishga tayyorlash.
17.	Gidrotexnik qurilishda geodezik ishlar. Qidiruv ishlarning bosqichlari va tartibi. Daryolarni syomka qilish. Sug'orish kanali o'qini topografik kartada trassalash, piketlarga bo'lish va ular balandligini aniqlash.
18.	Topokartada kanal o'qini trassalash va bo'yama profil uchun ma'lumotlarni aniqlash.
19.	Bino va inshootlar deformatsiyasini o'lchash. Bino va inshootlarni cho'kish va gorizontal siljishini aniqlash.
20.	To'g'onlar cho'kishini va gorizontal siljishini kuzatish loyihasini tuzish.
21.	Inshoot vertikal og'ishini aniqlash.

VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: topografik-geodezik qidiruv ishlarni mazmuni, ishlarni bajarish usullari, geodezik rejalash uchun tayanch asosni qurish, rejalashni usullari va qurilish ishlarni geodezik ta'minlash nazariyasini haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*; qurilish obyekti loyihasini tuzish uchun yirik masshtabli topografik syomka asosini yaratish va syomkani bajarishni, loyihalangan bino va inshootlarni joyga ko'chirish, ularni qurish jarayonida geodezik nazorat o'lchash ishlarni olib borishni, inshootlarni foydalanish davrida ular deformatsiyasini geodezik kuzatish usullarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*; inshootlar loyihasini tuzish uchun yirik masshtabli topografik syomka geodezik asosini loyihalash va qurish, asboblarni tanlash va syomkani bajarish; inshootlarni rejalash uchun geodezik ma'lumotlar, ishchi chizmalarni tayyorlash va rejalash ishlarni bajarish; inshootlarni qurish jarayonida geodezik nazorat o'lchash ishlari uchun zarur asboblarni tanlash va o'lchashlarni ta'minlash; inshootlar deformatsiyasini geodezik usulda kuzatish loyihasini tuzish va o'lchashlarni olib borish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma' tuzalar,
- interfaol keys-stadlar,
- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar,
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
- taqdimotlarni qilish.

IX. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy ushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks etira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'linda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar

1. Avchiyev Sh.K. Amaliy geodeziya. Darslik. – Toshkent: "Voriz-nashriyot", 2010. – 352 b.
2. Федотов Г.А. Инженерная геодезия. Учебник. – 2-е изд., исправл. – Москва: "Высшая школа", 2004. – 463 с.
3. Авакян В.В. Прикладная геодезия: технологии инженерно-геодезических работ. / Учебное пособие. – 2-е изд. – Москва: "Инфра-Инженерия", 2016. – 588 с.
4. Левчук Г.П., Новак В.Е., Копусов В.Г. Прикладная геодезия: Основные методы и принципы инженерно-геодезических работ / Учебник. – Москва: "Недра", 1981. – 438 с.
5. Левчук Г.П., Новак В.Е., Лебедев Н.Н. Прикладная геодезия. Геодезические работы при изысканиях и строительстве инженерных сооружений. Под ред. Г.П. Левчука/Учебник. – Москва: "Недра", 1983– 400 с.
6. Muborakov H. Geodeziya. O'quv qo'llama. To'rtinchi nashri. – Toshkent: "Cho'iron", 2017. – 463 b.

Axborot manbaalari	
7.	http://www.gsi2000.ru (Yangi geodezik asboblari va ular bilan ishlash). http://www.geopribori.ru
8.	Fan dasturi Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
9.	Fan/modul uchun mas'ullar: J. Sattarov - SamDU Gidrometeorologiya kafedrasi assistenti o'qituvchisi Taqrizchilar: A.S. Suyunov - SamDAQU "Geomatika muhandisligi" kafedrasi t.f.d. X. Juraqulov - SamDU, "Gidrometeorologiya" kafedrasi professori, g.f.n. (ichki) (tel. 91 700 52 25)

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va modullari ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais: **X. Juraqulov S.A.**
Kafedra mudiri: **A.B. Meliyev**
Ta'limot beruvchi: **S.B. Abbasov**
Sh. Rashidov nomidagi "Geomatika muhandisligi" kafedrasi
SamDU O'quv ishlar bo'yicha
Koordinator: **A.S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi dotsenti Sh.Sh. Tuxtamishiev tomonidan 60721500 - Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi 3-4 kurs talabalari uchun "Amaliy geodeziya" fanidan fan dasturiga
T A Q R I Z

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur ishlohlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada 60721500 - Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi namunaviy o'quv rejasiga kiritilgan "Amaliy geodeziya" o'quv fani alohida o'rin egallaydi.

Taqritz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasida Sh.Sh. Tuxtamishiev tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talabalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, amaliy geodeziya fani talabalarga topografik-geodezik qidiruv ishlari, loyihani joyga ko'chirish, bino va inshootlarni qurishda geodezik ishlarni bajarish, inshootlar deformatsiyasini kuzatish masalalari haqida bilim va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hamda malakalar shakllanadi.

Dasturning asosiy, ya'ni mazmuni mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'linda fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, bir-birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Sir emaski, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga imkon beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'rinnidir. Fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, SamDUda Sh.Sh. Tuxtamishiev tomonidan tuzilgan "Amaliy geodeziya" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha 60721500 - Geodeziya va geoinformatika yo'nalishining malaka talabalarida qayd etilgan vazifalarga to'la javob beradi va uni tasdiqla tavsiya etaman.

Mirzo Ulag'bek nomidagi SamDAQU,
Geomatika muhandisligi kafedrasi
professor



A.A. Suyunov
TASDOLAVIYAN
NB BOSHUGI
SamDU

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasida dotsent Sh.Sh. Tuxtamishev tomonidan 60721500- Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi 3-4 kurs talabalari uchun "Amaliy geodeziya" fanidan fan dasturiga

T A Q R I Z

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur islohatlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada rejasiga kiritilgan "Amaliy geodeziya" o'quv fani alohida o'rin egallaydi. Taqriz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasida Sh.Sh. Tuxtamishev tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, amaliy geodeziya fani talabalarga topografik-geodezik qidiruv ishlari, bino va inshootlar loyihasini joyga ko'chirish, qurilish jarayonida geodezik o'lchashlarni olib borish, ijroviy syonklarni bajarish, inshootlarni foydalanish davrida ular deformatsiyasini geodezik kuzatib borish haqida bilim va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hamda malakalar shakllanadi.

Dasturning asosiy, ya'ni ma'ruzalar mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'limda fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalda oshirish talabalar bilimni yanada mustahkamlaydi.

Sir emaski, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga imkon beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalari va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'rinnidir. Fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, Samarqandda Sh.Sh. Tuxtamishev tomonidan tuzilgan "Amaliy geodeziya" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha 60721500 - Geodeziya va geoinformatika yo'nalishining malaka talablarida qayd etilgan vazifalarga to'la javob beradi va uni tasdiqla tavsiya etaman.

"Geologiya va gidrometeorologiya"
kafedrasida professori

X.Jo'raqulov

